



# O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 ISS: 1 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



№	MUNDARIJA	Page
1.	<i>SUG'URTA XIZMATLARI BOZORINI MODERNIZATSIYA QILISH VA UNING QAMROVINI OSHIRISH YO'LLARI</i> <i>Adilova Gulnur Djurabayevna</i>	4
2.	<i>AGROSANOAT MAJMUIDA SUG'URTALANGAN OB'EKTAR HOLATINI MONITORING QILISHDA RAQAMLI GAT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI</i> <i>Yadgarov Akram Akbarovich</i>	7
3.	<i>MAMLAKAT ICHKI INVESTITSION IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISHDA SUG'URTA KOMPANIYALARI INVESTITSION FAOLIYATINING ROLINI OSHIRISH MASALALARI</i> <i>Kenjayev Ilhom G'iyozovich</i>	11
4.	<i>SUG'URTA KOMPANIYALARI MOLIVAVIY HOLATINI BAHOLASH METODLARINI TAKOMILLASHTIRISH</i> <i>Xattabov Murodulla Batirovich</i>	15
5.	<i>SUG'URTA TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI BOSHQARISH TIZIMI</i> <i>Xolbayev Azamat Yuldashovich</i>	20
6.	<i>MAMLAKATIMIZDA OLIY TA'LIM EKSPORT XIZMATLARI MOLIVAVIY NATIJADORLIGINI TA'MINLASHNI TAKOMILLASHTIRISH</i> <i>Abdusattarova Dildora Bohodirovna</i>	25
7.	<i>O'ZBEKISTONDA IJTIMOIIY SOHA XARAJATLARINI MOLIVALASHTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI</i> <i>Rashidova Guzal Abduvohidovna, Xamroyev Mexroj Sirojxonovich</i>	29
8.	<i>KORXONALAR MOLIVAVIY NATIJALARINI BOSHQARISHDA RAQAMLASHTIRISH TIZIMINING ROLI</i> <i>Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o'g'li, Faxriddinov Bekzodbek Faxriddin o'g'li</i>	32
9.	<i>TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELINI BAHOLASHDA RISKLAR VA DIVERSIFIKATSIYANING O'RNI</i> <i>Toshtemirov Doston O'ktam o'g'li</i>	36
10.	<i>ECONOMIC SECURITY OF COMMERCIAL BANKS: CONCEPTUAL FOUNDATIONS AND THREAT MITIGATION FRAMEWORK</i> <i>Agzamov Avazon Talgatovich, Malikova Dilrabo Muminovna</i>	40
11.	<i>ШАФФОФ ИНВЕСТИЦИОН МУХИТНИ ЯРАТИШГА ҚАРАТИЛГАН ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ</i> <i>Имомов Хамдилла Хамдамович</i>	44
12.	<i>TURIZM KORXONALARIDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISH MASALALARI</i> <i>Axrorov Zarif Oripovich</i>	47
13.	<i>ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ПРЯМЫХ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В ЭКОНОМИКУ</i> <i>Эргашева Юлдуз</i>	50
14.	<i>O'ZBEKISTONDA TRANSPORT LOGISTIKASI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH SAMARADORLIGI</i> <i>Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li, Fozilova Shaxloxon</i>	52
15.	<i>YURIDIK SHAXSLAR MOL-MULKINI SOLIQQA TORTISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI</i> <i>Agzamov Avazxon Talgatovich</i>	55
16.	<i>JISMONIY SHAXSLARNING DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISH TARTIBI VA UNING NAZARIY ASOSLARI</i> <i>Bobomurotova Manzura Panji qizi</i>	58
17.	<i>O'ZBEKISTON SUG'URTA TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA RISKLARNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO STANDARTLARNING O'RNI VA AHAMIYATI</i> <i>Xasanov Farrux Ravshanovich</i>	62

## “O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
2. Maqsudov Davron Sanjarxo‘jayevich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktori o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (“O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi” AJ bosh direktori, iqtisodiyot fanlari doktori).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
5. Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
6. Sindarov Sherzod Egamberdiyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
7. Zakirov Latif Xamidullayevich (Moliya vazirligi huzuridagi TKFJMS qoshidagi To‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi direktori).
8. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari uyushmasi kengashi raisi).
9. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash markazi rahbari, dots.).
10. Quldoshov Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, DSc, bosh muharrir).
11. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, prof.).
12. Shennayev Xojayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
13. Boyev Xabibullo Ismoilovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori).
14. Ortiqov Furqat A‘zamjonovich (“Kafil Sug‘urta” AK sug‘urta kompaniyasi direktorlar kengashi raisi).
15. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (O‘zbekiston madaniyat va san‘at instituti professori, i.f.n. dots.).
16. Merident Randles (FSA, MAAA. Principal & Consulting Actuary. Katta maslahatchi, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
17. Ong Xie (FIA, FSAS. Dastur menejeri, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Olmosh: She/Her).
18. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi rahbari, i.f.b.f.d.).
19. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich (TDIU “Moliya bozori va sug‘urta” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori).
20. Mutalova Dilorom Maxamadjanovna (TDIU “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori).
21. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professori v.b., falsafa fanlari doktori).
22. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU Magistratura bo‘yicha dekan o‘rinbosari, i.f.b.f.d., dots.).
23. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori v.b., iqtisodiyot fanlari doktori).
24. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida professori v.b. i.f.d.).
25. Samadov Asqarjon Nishonovich (TDIU “Marketing” kafedrasida dotsenti, universitet Kengashi kotibi, fanlar nomzodi).
26. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, t.f.n. kotib).
27. Qarshiyev Daniyar Eshpo‘latovich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, i.f.n., bosh muharrir).
28. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
29. Hamdamov Shoh-Jahon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).
30. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).



## TURIZM KORXONALARIDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISH MASALALARI

Axrorov Zarif Oripovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqanl filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor v.b.  
z.akhroroff@gmail.com

**Annotatsiya:** Maqola turizm korxonalarida investitsion faoliyatini shakllantirish xususiyatlariga bag'ishlangan bo'lib, unda turizm korxonalarining investitsiya faoliyatini tartibga solish usullari dolzarb maqsadlarga yo'naltirilishi, investitsiya faoliyatini moliyalashtirishni takomillashtirishning amaldagi holati tahlili, turizm korxonalarining investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish bo'yicha taklif va tavsiyalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** turizm, turizm korxonasi, investitsiya, investitsion faoliyat, soliq, turistik mahsulot.

**Abstract:** The article is devoted to the peculiarities of the formation of investment activities of tourism enterprises, contains proposals and recommendations for regulating the investment activities of tourism enterprises, directing the methods of investment activities of tourism enterprises to real goals, analyzing the current situation of improving the financing of investment activities, state regulation of investment activities of tourism enterprises.

**Keywords:** tourism, tourism enterprise, investment, investment activity, tax, tourism product.

**Абстрактный:** Статья посвящена особенностям формирования инвестиционной деятельности туристических предприятий, содержит предложения и рекомендации по регулированию инвестиционной деятельности туристических предприятий, направлению методов инвестиционной деятельности туристических предприятий на реальные цели, анализ текущая ситуация совершенствования финансирования инвестиционной деятельности, государственного регулирования инвестиционной деятельности туристических предприятий.

**Ключевые слова:** туризм, туристическое предприятие, инвестиции, инвестиционная деятельность, налог, туристский продукт.

### Kirish (Introduction/Введение)

Hozirgi sharoitda respublikadagi turizm korxonalarining investitsiya faoliyatini boshqarish va tartibga solish, global bilimlarni egallash, soliq munosabatlarning tartibga soluvchi ahamiyatini takomillashtirish, ularning rag'batlantiruvchanlik rolini kuchaytirishga qaratilishiga zamin yaratish dolzarb masala bo'lib hisoblanadi.

Bunday muhitni yuzaga keltirish orqali iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlari bir maromda rivojlanishi uchun zamin yaratilishi kerak bo'ladi. Chunki jamiyat ehtiyojlarini tez o'zgarib turishini va ishlab chiqarishni esa, ularga moslashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Natijada iqtisodiyotning ayrim soha va tarmoqlarini jadal rivojlanishi raqobat muhitini yaratib beradi. Ammo raqobatbardosh bo'lishi mavjud nomutanosibliklarni bartaraf etishni butun iqtisodiyot kompleksini balansli rivojlanishini ta'minlash, real sektor korxonalarining investitsiya faoliyatini moliyalashtirishni kuchaytirish talab etadi. Bu esa eng avvalo o'z-o'zini tartibga solish va boshqarish orqali amalga oshirilishini taqozo etadi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni va ularga o'rnatilgan munosabatlarni oqilona tanlash va ijro etish, o'z faoliyati usulidan mustaqillik foydalanish o'ta muhim va dolzarb masaladir. U korxonalarini shu jumladan, turizm korxonalarini investitsiya faoliyatini tartibga solishda muhim o'rin tutadi, shu bilan birga ayrim hollarda iqtisodiyotni barqarorlashtirishga o'zlik qiladi va bu ishga davlat aralashuvini taqozo etadi. Davlat aralashuvi esa yirik tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlash, iqtisodiy rivojlanishning samarador yangi yo'nalishlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini ravnaq toptirish uchun zarur.

**Mavzuga oid adabiyotlar sharhi (Literature review, Анализ литературы)**

Turizm korxonalar rivojlanishiga investitsiyalarni iqtisodiy baholashga qaratilgan ilmiy ishda V.S.Bogolyubov, S.A.Bistrov, S.A.Bogolyubovalar turizmga investitsiyalarni kapital yordamida yangi turistik ob'ektlarni yaratish, modernizatsiyalash yoki muayyan turdagi turistik xizmatlarni ishlab chiqaruvchi va taqdim etishga qodir bo'lgan mavjudlarini rekonstruksiya qilish, shuningdek, nomoddiy aktivlar (ixtirolar, nou-xau va h.k.lar)ni yaratish sifatida talqin qilishadi [1].

Tadqiqotchi D.Ollonazarov turistik klasteri tashkil qilishni taklif etgan holda, aynan shu tuzilma orqali hududning mintaqada, milliy darajada va xalqaro bozorlarga chiqish, investitsion salohiyatini ochish bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtirish mumkin, deya hisoblaydi [2].

G.Narzullaeva fikricha, turizmga investitsion faoliyat –bu sohaning rivojini ta'minlashga xizmat qiladigan, ya'ni turistik faoliyatni amalga oshirish va uni rag'batlantirish uchun yo'naltiriladigan mablag'larni boshqarish munosabatlari yig'indisidir [3]. Ushbu munosabatlarda turistik faoliyatni tizimli qo'llab-quvvatlashga asoslangan huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy, moliyaviy uslublar majmuasi tartibga solinadi.

M.Nawaz va S.Hassan fikricha, odamlarni turli yo'nalishlarga jalb qiluvchi jozibali landshaftlar va arxeologik diqqatga sazovor joylar kabi ko'plab omillar turizmni rivojlantirish uchun zarur hisoblanadi [4]. Bu ularga turizm sohasiga sarmoya kiritish, turizm korxonalarida investitsiya faoliyatini tashkil etishi uchun yetarli shartdir.

Serbiyalik olimlar N.Pantich va I.Miloevichlar turizmga investitsiyalar ham turizmni, ham u bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lgan boshqa faoliyatni rivojlantirish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini e'tirof etgan holda turizmning ulkan salohiyatiga qaramay, infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi turizmning rolini pasaytiradigan sabablardan biri sifatida namoyon bo'lishini ta'kidlashadi [5].

Alohida olganda, turizm xizmatlarining rivojlanishi yoki investitsiyalarning tarmoq va iqtisodiy o'sish bilan bog'liqligi uzoq vaqtdan beri tadqiqotchilar o'rtasida qiziqish uyg'otgan va bu sohada katta hajmdagi adabiyotlarni topish mumkin, ammo investitsiyalar va turizmning o'sishi, turizm korxonalarida investitsiya faoliyatini tartibga solishga oid yetarli adabiyotlar hali boshlang'ich bosqichida ekanligini e'tirof etishimiz lozim.

**Tadqiqot maqsadi va usullari (Research objective and methods, Цель и методы исследования)**

Turizm korxonalarida investitsiya faoliyatini, uni davlat tomonidan tartibga solishda qo'llaniladigan usullarni ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai-nazardan o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarda ilgari surilgan ilmiy-amaliy takliflarni tahlil qilishda mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma'lumotni guruhlash, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results, Анализ и результаты)**

Ta'kidlash joizki, davlatning korxonalar iqtisodiyotida aralashuvi xozirgi sharoitda ma'lum chegaraga ega bo'lib, faqat qonunan amalga oshirilishi kerak. Shuning uchun ham turizm korxonalarini rivoji iqtisodiy o'sishning muhim omili sifatida e'tirof etilishi, ushbu sohaga keng qo'llamda investitsiya oqimi jalb etish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Turizm korxonalarining investitsiya foyiatini tartibga solish usullari qo'yidagi maqsadlarga yo'naltirilishi dolzarb masalalar sirasiga kiradi:

- yangi tur mahsulotlarni ishlab chiqarishni qullab-quvvatlash;
- tur mahsulotlarni sug'urtalashni rivojlantirish orqali moliyaviy risk ehtimolini kamaytirish;
- bozor konyukturasi o'zgarishlariga va sayyohlar ehtiyojlariga tez moslasha olishi bois uni yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi daromadini oshirish borasidagi eng qo'lay va maqbul vositasiga aylantirish;
- turli moliyaviy fondlar mablag'larni jalb etish va ulardan samarali foydalanishni tashkil etish orqali turistik korxonaga ehtiyojlarni qondirish;
- turistik korxonaga xarajatlarini, korxonaga investitsiyalar orqali ilg'or texnologiyalar va fan yutuklarini joriy qilishni ta'minlash;
- amortizatsiya siyosati orqali turizm korxonalarining moliyaviy resurslarni jang'arishga ularning asosiy natijalarini yangilanishi darajasiga ta'sir ko'rsatish shuning jumlasidandir.

Turizm sohasi bo'yicha davlat siyosati va kommunikatsiya tarmog'ini barpo etish, yaxshi transport infratuzilmasini ta'minlash, san'at va hunarmandchilikni rivojlantirish, merosni asrab-avaylash va muzeylarni rivojlantirish bo'yicha tashabbuslarni rejalashtirish turizmni rivojlantirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi [6].

Turizm korxonalarining investitsiya faoliyatini tartibga solish borasidagi xalqaro tajribalarni hisobga olish, sarmoyadorlarga investitsiyalashning barcha turlari va shakllarida tartibotni berish yanada qulay investitsiya muhitini yaratadi va chet el investitsiyalari kirib kelishini tezlashtiradi. Masalaga shu jihatdan yondashganda, yuqorida tilga olingan qonunlar va qarorlar sharofati o'laroq, korxonalarda ko'plab imkoniyatlar muhayyo etilib, ularga turli soliq imtiyozlari berilmoqda. Ayniqsa, xorijiy investorlar uchun keng imtiyozlar yaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2023 yil 11 sentyabrda PF-158-farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston – 2030 strategiyasida mamlakatimizni rivojlantirishning bir qator ustuvor vazifalar belgilab berildi. Xususan, ushbu strategiyaning 58-maqsadi "O'zbekistonda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali sayyohlar sonini oshirish" deb nomlanadi. Unda xorijiy turistlar sonini 15 millionga, ichki sayyohlar sonini 25 millionga, ziyorat turizmi bo'yicha keladigan turistlar sonini 3 million nafarga oshirish; xususiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga respublikada 30 ta yirik turizm klasterlarini tashkil etish, mehmon o'rinlari sonini kamida 2 barobarga oshirish, tog'li hududlarda 25 ta dor yo'llari qurish, turizm mahallalari sonini 175 taga yetkazish; turizm xizmatlari eksportini 5 milliard dollarga yetkazish, tibbiyot va ta'lim turizmi eksportini yiliga 1,5 milliard dollarga yetkazish; xorijiy turistlar uchun barcha xalqaro aeroportlarda respublikadan sotib olingan va rasmiylashtirilgan mahsulotlar uchun "Tax free" tizimini joriy etish; "Ko'hna tarix durdonalari" milliy dasturini ishlab chiqish hamda uning doirasida madaniy meros ob'ektini restavratsiya qilish, yodgorliklarda "ochiq osmon muzey"larini tashkil etish; mamlakatimiz miqyosida shaharlararo avtobus qatnovini ta'minlaydigan kompaniyalarni tashkil etishni yanada rag'batlantirish; jami 1 000 dan ziyod elektr quvvatlash stansiyalari, ovqatlanish va hordiq chiqarish, savdo va xizmat ko'rsatish nuqtalarini tashkil qilish vazifalari belgilangan. Bu farmon mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash jarayonining mantiqiy davomi bo'ldi. Unga ko'ra turli mulkchilikdagi shu jumladan turizm korxonalarini keng miqyosda isloh etish, eng zamonaviy texnologik uskunalar bilan jihozlash, ularning faoliyatiga ilg'or ilm-fan yutuqlari va innovatsiya texnologiyalarni jadal tadbiiq etish, yuqori malakali kadrlar tayyorlashni kengaytirish, shu tariqa milliy sanoatimiz mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish, bozor konyukturasi o'zgarishlariga bog'liqligini kamaytirish ko'zda tutilgan [7].

Turizm korxonalarida investitsiya mablag'laridan foydalanish muayyan natijalariga olib keladi. Turizm korxonalarini uchun investitsiya mablag'larining ahamiyati muomalada bo'lish shart-sharoitlari, jamoat ishlab chiqarishiga ta'sir o'tkazish yo'nalishlari, boshqa taqsimot toifalari bilan bog'liqligi o'zgarishi kabi omillarga mos ravishda turlicha bo'lishi mumkin. Biroq, turli tarixiy davrlarda investitsiya mablag'laridan foydalanish evaziga erishiladigan natijalar, xilma-xilligidan qa'tiy nazar, yagona omil – investitsiya mablag'lari vositasining turistik faoliyat jarayonlariga ta'sir ko'rsatish imkoniyati daxlsiz bo'lishi zarur.

Moliyaviy mablag'larning hajmi va tarkibi turistik mahsulotlarini oshish darajasiga bog'liq. Uning samaradorligi qancha yuqori bo'lsa, sarflanayotgan va foydalanilayotgan moliyaviy mablag'lar hajmi ham

shuncha ko'p bo'ladi. O'z nabatida, ayni maqsadlarga sarflanayotgan moliyaviy mablag'larning aksariyati turizm korxonalarini ijtimoiy o'sishi va takomillashishi uchun kulayliklar yaratadi. Moliyaviy mablag'lar qaysi yo'nalishida va qancha miqdorda sarflanayotganiga qarab, turizm korxonalarini qo'shimcha quvvatlar bilan ta'minlash imkoniyatlari ta'minlanadi. Turizm korxonalarining texnikaviy darajasi yuksalishiga, mehnat unumdorligi o'sishi uchun qo'lay shart-sharoitlar yaratilishiga olib keladi.

Bunday sharoitda turizm korxonalarining investitsiya faoliyatini tartibga solish yo'llari ancha ko'payadi. Davlat soliqlar yordamida turizm korxonalarining shaxsiy moliyaviy xazinalar bilan ta'minlanganlik darajasini oshirishga ta'sir ko'rsatish choralarini qo'llaydi. Qayta tiklangan nisbatlarga ta'sir qiluvchi jadal amortizatsiya, mutaxassislar tayyorlash, ijtimoiy sug'urta va boshqalarga byudjetdan mablag'lar ajratishdek moliyaviy omillardan ham foydalanadi. Hosil qilingan nisbatlarni tartibga solishda turizm korxonalarini barqarorligini kafolatlovchi sug'urtalashning ahamiyati ham asta-sekin ortib boradi. U kelgusida muvaffaqiyatsiz ilmiy-texnikaviy ixtirolar keltirilgan zararlarni, shuningdek, ish tashlashlar va qiyosiy noroziliklar tufayli boy berilgan daromadlarni ham qoplaydigan bo'ladi.

Turizm korxonalaridagi investitsiya faoliyatini tartibga solishning davlat mexanizmidagi byudjetga to'lovlar va byudjetdan moliyaviy ta'minlash birdek muhimdir. Ammo bu ularning ahamiyati bir xil degan emas. Byudjetga to'lovlar asosan turistik korxonaning xususiy moliyaviy negizini tartibga keltirishga yo'naltiriladi. Ayni chog'da, u muayyan turistik korxonasida qoladigan xususiy moliyaviy xazinalarining u yoki bu ulushi kattaligigagina ta'sir ko'rsatadi. Byudjetdan moliyaviy ta'minlash esa boshqa vazifani bajaradi, ya'ni umumdavlat xazinalarini jalb etish yo'li bilan turizm korxonalarining moliyaviy imoniyatlarini kuchaytiradi. Bu esa turizm korxonalarini jadal rivojlanishiga yordam beradi, yangi tur mahsulotlar paydo bo'lishi, ilmiy-texnikaviy jarayon jadallashi uchun zarur sharoitlar yaratib, ular taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu urinda aytish joizki, oxirgi 2-3 yil ichida mamlakatimizda shakllantirilgan investitsiya faoliyatining me'yoriy-xuquqiy bazasi yangilanib kelmoqda. Hozir u investitsiya kiritishdan tortib, investorlarning huquqlari, majuriyatlari va kafolatlarigacha bo'lgan jarayonlarni qamrab olgan. Milliy qonunchiligimizda mahaliy investorlar qatori xorijiy sarmoyalar hamda xorijiy sarmoyadorlarga ham keng imtiyozlar va kafolatlar tizimi taklif qilingan. Bu baza o'zining muhimligi va kamrov doirasi bo'yicha tasniflangan.

Turizm korxonalarini investitsiya mablag'larini innovatsion tur mahsulotlarni oshirishga va uni rivojlantirishga mablag' ajratish yo'li bilan ta'sir ko'rsatadi.

Shu bois ham hozirgi sharoitda turizm korxonalarining investitsiya faoliyatini moliyalashtirishni takomillashtirish mamlakatlarning amaldagi qonunlarini, investitsiya muhitini hisobga olgan holda amalga oshirilishini ta'minlashga molik bo'lishi lozim.

Turizm korxonalarining investitsiya faoliyatini moliyalashtirishni tartibga solish huquqiy nuqtai nazardan turli mulkdorlar o'rtasida moddiy va nomoddiy aktivlarni yaratishdagi xususidagi o'ziga xos, murakkab va ijtimoiy zarur iqtisodiy (investitsiya) munosabatlarni shakllantirish me'yorlarni nazarda tutadi. Bunda investitsiya jarayonining barcha sub'ektlari – xorijlik investorlardan tortib, davlat, yuridik va jismoniy shaxslar, jumladan, chet ellik rezidentlar va norizidentlargacha bu munosabatlar ishtirokchisiga aylanishi zarur bo'ladi.

Turizm korxonalarida investitsiya munosabatlarining mohiyati, ushbu faoliyat ishtirokchilari doirasida va darajasida o'z ifodasini topadi. Turizm korxonalarini investitsiya munosabatlarining mavjudligi tartibga solishning mustaqil predmeti bo'lishini taqoz qiladi. Huquqiy nuqtai nazardan yondashganda, turizm korxonalarida investitsiya faoliyatini moliyalashtirishni tartibga solish umumiy huquqiy va xususiy huquqiy tartibga solish me'yorlarini qamrab oladi. Bu me'yorlarning birligi ijtimoiy va alohida investitsiya munosabatlarining o'ziga xos xususiyati va mohiyatini ifodalaydi hamda ularni tartibga solish usuliga aylantiradi. Tartibga solish usullari huquq me'yorlarining ham alohida, ham ijtimoiy zarur investitsiya munosabatlarini xarakteriga o'ziga xos tarzda ta'sir ko'rsatish yo'llaridan iboratdir.

Turizm korxonalarini investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish, birinchi navbatda, davlatning iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy siyosatini amalga oshirish maqsadlarini ko'zlaydi. Hozirgi davrda investitsiya munosabatlari kapitalarga egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etish borasida munosabatlarini qamrab oladi hamda nafaqat milliy iqtisodiyot, balki xalqaro iqtisodiyot darajasida ham resurslarni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonlarini aks ettiradi.

O'zbekistonda turizm korxonalarida investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish jarayonidagi asosiy vazifalar ijtimoiy va

xususiy manfaatlarni, investorlar manfaatlarini to'g'ri aniqlashdan, ularning o'zaro maqbul nisbatlarini kelishib olish, ro'yobga chiqarishning teng huquqiy sharoitlari va kafolatlarini belgilashdan iborat.

Turizm korxonalarining investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish esa qo'yidagi tartibda amalga oshiriladi:

- turizm korxonalarini investitsion muhitini qonunchilik asosini yaratish va takomillashtirish;

- turizm korxonalariga soliq to'lovchilar va soliq solish ob'ektlarini, soliq stavkalari va ularga doir imtiyozlarni tabaqalashtiruvchi soliq tizimini qo'llash;

- turizm korxonalariga tur mahsulotlarni taqdim etish normalarini, qoidalarini va standartlarini belgilash;

- raqobatbardoshlik muhitini qonuniy asosini yaratish;

- kredit siyosati va narx(tarifi) belgilash siyosatini o'tkazish;

- yer, dala va boshqa tabiiy resurslardan samarali foydalanish shartlarini belgilash;

- investitsiya loyihalarini ekspertiza qilish mexanizmlarini belgilash;

- O'zbekiston Respublikasining investitsiya dasturiga kiritilgan investitsiya loyihalarning amalga oshirilishi monitoringini yuritish.

Turizm korxonalarini hozirgi sharoitida ayrim omillarga bog'liq holda xorij investitsiyalarini olish, loyihalarda ishtiroklarini suniy ravishda cheklab tijorat banklarini kredit resurslaridan foydalanishga intilishadi. O'tkazilgan kuzatuvlar va so'rovlar natijasida qo'yidagi omillar hozirgacha mavjud ekanligiga nisbatan xulosa chiqarib olish mumkin. Ya'ni:

- Turizm korxonalarini investitsiya olishdan oldin turistik ob'ektni yaratish maydoni aholini zich joylashuviga alohida diqqat qaratishadi. Agar ushbu holat doirasida sharoit bo'lmasa ular turistik korxonasini kengaytirish, ya'ni innovatsion tur mahsulotlarni ishlab chiqishdan bosh tortib ilgari mavjud bo'lgan holat va faoliyat turini davom etishga xarakter qilishadi;

- Turizm korxonalarini transport suv, gaz, elektro energiya kabi kommunal tizimni joylashish joylari ham qiziqtiradi. Ushbu sub'ektlarni mavjudligi tadbirkorlar tomonidan, innovatsion investitsiya loyahasini olishga ishtirokini tezlashtiradi. Agarda ulardan bir ikkitasi mavjud bo'lmasa unda bunday loyihadan ishtirok etishdan bosh tortishadi;

Turizm korxonalarini tomonidan innoatsion investitsiya oqimlari olishi nafaqat olinadigan kapitalga nisbatan imtiyozlari mavjudligi, balkim qo'shimcha xarajatlarni yuzaga keltiruvchi omillardan o'zlarini chetga olishga ham harakat qilishadi.

#### **Xulosa (Conclusion, Заключение)**

Shunday qilib turizm korxonalarida investitsiya faoliyatini tartibga solish, birinchi navbatda, barcha turizm korxonalarini pul jamg'armalarining o'sish sur'atlarini rag'batlantirish va tur mahsulotlar darajasini oshirishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Bu esa turizm korxonalarini investitsiya faoliyatini tartibga solish tizimi doirasida soliqning rag'batlantiruvchi funksiyalarini kuchaytirish investitsiyalarni moliyalashtirishda esa bozor mexanizmlari rolini kengaytirishga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda qayd etilgan holatlar diqqatga molik ular yechimini ilmiy asoslash zarur. Bu esa Respublikada turistik klasterni(kooperatsion xamkorlikka) to'liq shakillantirmay turib yirik innovatsion investitsiya oqimlarini turistik xizmatlar sohasiga imtiyozli kiritish xam o'z ijobiy samarasini bermasligi mumkin. Shu bois, turistik klasster tarmoqlaridan biri bo'lmish mexmonxonalarini yil davomida turli potensial darajasida faoliyat ko'rsata olmasligi davlat tomonidan ularga nisbatan ham (agarda davlat loyihasi asosida tashkil etilgan bo'lsa) turli imtiyozlar taqdim etilsa ham ko'zda tutilgan samara berishi uzoq vaqtni talab etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):**

1. Боголюбов В. С., Быстров С. А., Боголюбова С. А. Экономическая оценка инвестиций в развитие туризма. Международный журнал экспериментального образования. №3, 2010. – с. 26-27.
2. Ollonazarov D. Klaster yondashuvi asosida turistik xizmatlar sohasida investitsion faoliyatni oshirish masalalari. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. №1, 2019 yil. –
3. Narzullaeva G. Turizm investitsion faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari va amal qilishining tashkiliy jihatlari. // "Logistika va iqtisodiyot" ilmiy elektron jurnali. №1, 2022. – 257 b.
4. Nawaz M. A., & Hassan, S. Investment and Tourism: Insights from the literature. International Journal of Economic Perspectives 10, no. 4. 2016. – p. 581-590.
5. Pantić N., & Milojević I. Investments and employment in tourism in the Republic of Serbia. Menaument u hotelijerstvu i turizmu 7, no. 1. 2019. – p. 95.
6. Akama J.S. The role of government in the development of tourism in Kenya. International Journal of Tourism Research 4, no. 1. 2002. – p. 1-14.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston - 2030 strategiyasi to'g'risida"gi PF-158 farmoni. 2023 yil 11 sentyabr. <https://lex.uz/docs/6600413>